XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 24-mart VII-9-40-7-0-K/25 Samarqand viloyati

Samarqand viloyatida ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflari miqdorini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6074-son Farmoni, 2022-yil 10-martdagi “Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokidagi “Suv ta’minoti va oqova suv tizimini rivojlantirish hamda institutsional salohiyatni oshirish” dasturi doirasida “Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahrida ichimlik suv hamda oqova suv tizimlarini rekonstruksiya qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-159-son qarorining 7-ilovasi, 13-bandi, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat boshqarmasining 2025-yil 23-yanvardagi (H-08-1455-02/04-sonli), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 10-fevraldagi (01/07-38/257-sonli) xulosalari, “Samarqand suv ta’minoti” AJning 2025-yil 24-fevraldagi (01/04-497-sonli) murojaatini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi chaqiriq, to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Viloyat hokimining o‘rinbosari (A.Shukurov), “Samarqand suv ta’minoti” AJ (T.Boboyev), Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat boshqarmasi (B.Toyirov), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Mirzayev)ning viloyatda ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflari miqdorini oshirish yuzasidan takliflari ma’qullansin.

2. Samarqand viloyatida ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflari miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi (M.Ixtiyorov), “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalari birlashgan tahririyati (F.Toshev)ga ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Ushbu qaror rasmiy 1-aprel kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Po‘latov), viloyat hokimining o‘rinbosari (A.Shukurov) zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi  Sh.Negmatov

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2025-yil 24-martdagi
VII-9-40-7-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyatida ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflari

MIQDORI

Xizmatlar turi	**Tip, marka, artikul yoki model raqami**	**O‘lchov birligi**	**Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m QQS siz)**
Ichimlik suvi			
Aholi uchun	Ichimlik suvi	1m³	2800
Byudjet tashkilotlari	Ichimlik suvi	1m³	6700
Ulgurji iste’molchilari uchun	Ichimlik suvi	1m³	6700
Oqova suv xizmati			
Aholi uchun	Oqova xizmati (kanalizatsiya)	1m³	1900
Byudjet tashkilotlari	Oqova xizmati (kanalizatsiya)	1m³	5300
Ulgurji iste’molchilari uchun	Oqova xizmati (kanalizatsiya)	1m³	5300